



**“OLMALIQ KMK”  
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

27 JUN 2022

**BUYRUQ**

000757 - sonli

**"Kombinat faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish  
va baholash tizimini joriy etish to'g'risida"**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 14 iyundagi PF-154-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash, kombinat faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash, ularning ochiqlik borasidagi samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash hamda faoliyatini ilg'or xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022 yil 14 iyundagi PF-154-sonli Farmoni (*keyingi o'rinlarda – Farmon*) **ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Sh.Jo'raev - Komplaens-nazorat xizmati boshlig'i v.b., U.Qarshiboeva-Boshqaruv raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi - Axborot xizmati boshlig'i Farmonda belgilangan topshiriqlarning ijrosi Kombinatning mas'ul bo'linma va xizmatlari (korxonalari) tomonidan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlari ochiqlanishi, bu borada ular tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashni haqqoniyligiga mas'ul va javobgar etib belgilansin.

3. Mas'ul bo'linma va xizmatlar ushbu Farmonning ilovalarida ko'rsatilgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni Axborot xizmatiga o'rnatilgan tartibda va muddatlarda taqdim etilishi ta'minlasin.

4. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni Boshqaruv raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi - Axborot xizmati boshlig'i - U.Qarshiboeva zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqaruv raisi**



**A.Xursanov**